

2026-yil, 10-sentabr

Hurmatli oilalar:

Yana xush kelibsiz! Birgalikda 2026-27 o'quv yilini boshlaganimizdan hayajondaman.

Maktabdagi birinchi o'quv kuni men uchun yilning eng yoqimli vaqtlaridan biridir, chunki u o'zi bilan ko'pgina yangi imkoniyatlar olib keladi. Farzandingiz yelkasiga katta sumkasini osib birinchi marta sinfga g'urur bilan kirib kelayotgan bog'cha tarbiyalanuvchisi, kiyim javonining yangi kodini sinab ko'rayotgan o'rta sinflar maktabi o'quvchisi yoki do'stlari bilan so'nggi birinchi qo'ng'iroq suratlariga tushayotgan bitiruvchi sinf o'quvchisi bo'lishidan qat'i nazar, oilangiz ham ana shunday umid va imkoniyatlar tuyg'usini his qilmoqda degan umiddaman.

Yillar davomida ham pedagog, ham ota sifatida ko'plab birinchi o'qish kunlarini boshimdan o'tkazganman. Ushbu rollarning har birida oilalarimiz har kuni Nyu-York shahar Davlat maktablariga qanchalik ishonch bildirishini shaxsan his qildim. Barchamiz farzandlarimizga bir xil tilak bildiramiz: ular maktabga qadam qo'yar ekan, o'zlarini samimiy qarshi olingandek, qo'llab-quvvatlangandek va bilim olishga tayyordek his qilishsin. Maktablar tizimi rahbari sifatidagi "birinchi o'quv kunimdagi" burchim ushbu tajribani har bir maktabdagi har bir bola uchun haqiqatga aylantirishdan iboratdir.

Ushbu lavozimda ish boshlaganimdan beri barcha beshta tuman bo'ylab yuzlab o'quvchilar, oilalar, pedagoglar va jamoatchilik vakillarini tinglash sharafiga muvaffaq bo'ldim. Sizlar bilan bo'lib o'tgan suhbatlarim kelgusi yil uchun ustuvor vazifalarimni belgilab berdi va bu xavfsiz, akademik jihatdan puxta va chinakam integratsiyalashgan maktablarni yaratishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, biz har bir o'quvchi o'zini hamjamiyatning bir qismi sifatida his qilishini hamda boy va madaniy xilma-xillikni hisobga oluvchi ta'lim muhitida o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlovga ega bo'lishini ta'minlashni xohlaymiz.

Yangi o'quv yilini boshlar ekanmiz, savollaringizga javob berishga va sizga kerak bo'ladigan har qanday yordamni taqdim etishga tayyor ekanimizni bilishingizni istayman. Ota-onalar koordinatori, maktab direktori, o'qituvchilar va maktab xodimlari har bir bosqichda sizga yordam berishga tayyordir. Maktablarimiz barcha o'quvchilarni quchoq ochib qarshi oladi va biz har bir oila o'zini shu ta'lim dargohining ajralmas qismi deb hisoblashini xohlaymiz.

Sizga va oilangizga qimmatli bilimlar hamda rivojlanishga boy ajoyib o'quv yilini tilayman. Barchangiz bilan muloqotni davom ettirish istagidaman va ushbu o'quv yilida birgalikda muvaffaqiyatga erishishga umid qilaman.

Hamkorlik umidi ila,



Kamari H. Samuel
Maktablar tizimi rahbari